





Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026-yilning yanvar-mart oylarida Toshkent viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 43 243,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2025-yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 7,6 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2025-yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 114,1 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent viloyatining qo'shgan hissasi 9,7 % ga yetdi.

2026- yilning yanvar-mart oylarida Toshkent viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



-  YAHM o'sish sur'ati
-  YAHM hajmi
-  YAHM deflyator indeksi
-  YAIMga qo'shgan hissasi



2026- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2025- yil	2026- yil	
I. YAHM, jami	35 246,8	43 243,1	107,6
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	34 316,2	41 945,8	107,5
mahsulotlarga sof soliqlar	930,6	1 297,3	110,2
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	34 316,2	41 945,8	107,5
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3 563,4	4 209,3	102,4
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	18 314,6	23 343,1	107,7
sanoat	15 796,5	20 613,6	107,8
qurilish	2 518,1	2 729,5	106,7
xizmatlar	12 438,2	14 393,4	108,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4 396,0	5 371,0	114,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 074,1	2 391,1	108,4
boshqa xizmat tarmoqlari	5 968,1	6 631,3	104,3



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 13 651,7 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 5,8 % ga yuqoridir.

2026- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2026- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2025- yil	2026- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,4	97,0
mahsulotlarga sof soliqlar	2,6	3,0
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	10,4	10,0
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	53,3	55,6
sanoat	46,0	49,1
qurilish	7,3	6,5
xizmatlar	36,3	34,4
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	12,8	12,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,0	5,7
boshqa xizmat tarmoqlari	17,5	15,9




2026- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,0 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,0 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 10,0 % ni, sanoat tarmog‘i 49,1 % ni, qurilish 6,5 % ni va xizmatlar sohasi 34,4 % ni tashkil qildi.

Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2025- yil



2026- yil



● Yalpi qo‘shilgan qiymat


● Mahsulotlarga sof soliqlar



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,2 f.p. (2025- yilning yanvar-martida – 0,4 f.p.), sanoat tarmog'i – 3,5 f.p. (2025- yilning yanvar-martida – 1,9 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,5 f.p. (2025- yilning yanvar-martida – 1,6 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,1 f.p. (2025- yilning yanvar-martida – 2,4 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2025- yilning yanvar-martida – 0,3 f.p.) ga ko'paydi .

2026- yilning yanvar-mart oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2026-yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 102,4 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 9,7 %), sanoatda – 107,8 % (47,7 %), qurilishda – 106,7 % (6,3 %), xizmatlar sohasida – 108,7 % ni (34,4 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 114,9 % (12,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 108,4 % (5,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,3 % dan (15,9 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2025- y.

2026- y.



6,6 %

YAHM

7,6 %



3,7 %

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi

2,4 %



4,3 %

Sanoat

7,8 %



20,1 %

Qurilish

6,7 %



7,4 %


Xizmatlar

8,7 %



2026-yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2025-yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 114,1 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat tarmog'ida – 121,0 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 115,4 % qayd etildi.

Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2026- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 19 969,3 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2025-yilning yanvar-mart oylarida – 17 067,9 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 47,6 % ni (2025-yilning yanvar-mart oylarida – 49,7 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oʻshishi bilan bogʻliq.

Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi *(jamiga nisbatan %da)*

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da

2025- yil

17 067,9

49,7 %

2026- yil

19 969,3

47,6 %

